

Issiqlik va elektr energiyasi tizimlari ta'minoti uchun innovatsion ekologik texnologiyalar

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Xalqaro Quyosh energiyasi institutida "Fizika-Quyosh" IChB Fizika-texnika instituti, O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi, "PLAN BEST ENERGY" MCHJ hamkorlikda "Issiqlik va elektr energiyasi tizimlari ta'minoti uchun innovatsion ekologik texnologiyalar" mavzusida seminar bo'lib o'tdi.



Seminar issiqlik va elektr energiyasi ta'minoti va foydalanish uchun yangi innovatsion va ekologik jihatdan toza texnologiyalarini ishlab chiqish va joriy etishning dolzarb masalalariga bag'ishlandi.

Seminarda SRO texnologiyalari loyihalashtirish va ish tajribasi, energo samarador binolarni loyihalashning xususiyatlari va ularning monitoring natijalari, elektr ta'minoti tizimlarini rivojlantirish, quyosh fotoelektr tizimlarini tarmoqqa integratsiyalash kabi masalalar muhokama qilindi.

Seminarda O'zR FA ilmiy-tadqiqot muassasalari yetakchi olimlari, Innovatsion rivojlanish vazirligi, Qurilish vazirligi, loyiha institutlari, chet el firmalarining vakillari, shuningdek, tadbirkorlar ishtirok etdilar.

Seminarda ko'rilgan ma'ruzalarda quyosh texnologiyalariga asoslangan innovatsion energiya tejoychi texnologiyalar issiqlik va elektr ta'minoti uchun Respublikaning sanoat obyektlarida va fermer xo'jaliklarida va xonadonlarda qo'llanilishi mumkin. Koreys loyihasi asosidagi energo samarador uy aholi uchun ekologik va energetik jihatdan foydali hisoblanib, kelajakda ushbu loyiha asosida quriladigan uylar mamlakatimizning elektr va issiqlik magistrallaridan uzoqda joylashgan hududlardagi elektr va issiqlik ta'minoti bilan bog'liq muammolarga oson yechim bo'ladi.



Seminarining yakuniy qismida ishtirokchilar quyosh elektr stansiyalarini amaliy qo'llash va respublikada innovatsion texnologiyalar asosida energiya tejamkor uylar yaratish bo'yicha o'z takliflarini bayon qildilar.

